

Bolalarda yuqumli mononukleozni kechishini klinik-epidemiologik xususiyatlari

G.B.Mustaeva

O.S.Tirkashev

N.S.Omonturdiyev

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Annotatsiya: Maqolada Samarqand viloyatida yashovchi 1 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan 142 nafar bemorda yuqumli mononukleozning klinik kechish xususiyatlari to'g'risida ma'lumot keltirilgan. Aniqlanishicha, xozirgi bosqichda kasallik klinik kechishini barcha xususiyatlarini saqlab qoladi. Yuqumli mononukleoz bilan kasallangan bolalarga kasallik tashxisi o'z vaqtida, aniqlik bilan qo'yilsa, kasallangan bemorlarda davo samaradoligi, isitma davomiyligini kamaytirish, limfa tugunlaridagi proliferativ sindromni og'irligini va sitoliz jarayonini tezroq to'xtatish bilan namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: atipik mononuklearlar, bolalar, Epshteyn-Barr virusi (EBV), yuqumli mononukleoz

Clinical-epidemiology characteristics of infectious mononucleosis in children

G.B.Mustaeva

O.S.Tirkashev

N.S.Omonturdiev

Samarkand State Medical University

Abstract: The article provides information on a set of clinical withdrawal features of infectious mononucleosis in 142 patients aged 1 to 14 living in the Samarkand region. It turns out that at the present stage, the disease retains all its features of the clinical course. If children with infectious mononucleosis are diagnosed with the disease in a timely, accurate manner, it is manifested in the effectiveness of treatment in infected patients, reducing the duration of fever, increasing the severity of proliferative syndrome in the lymph nodes and faster cessation of the cytolysis process.

Keywords: atypical mononuclears, children, Epstein-Barr virus (EBV), infectious mononucleosis

Bolalik davrida uchraydigan yuqumli kasalliklar orasida Epshteyn-Barr virusli yuqumli mononukleoz xastaligi asosiy o'rinlardan birini egallaydi [3]. Bemor bolalarning ko'pchilik qismida kasallik yaxshi oqibatli, asoratlarsiz sog'ayish bilan tugaydi, ammo Epshteyn-Barr virusi kasallangan odamning tanasida umr bo'yi saqlanib qolishi mumkin. Kam sonli bolalarda virusning bunday xolatda saqlanib qolishi limfoproliferativ sindrom, onkologik patologik o'zgarishlar va surunkali charchoq sindromi, gemofagotsitar sindromlar kabi jarayonlarni kuchayishiga turtki bo'lib xizmat qilishi mumkin [7, 9].


Xozirgi vaqtda bizga ma'lum Epshteyn-Barr virusi (IV-tip herpes virus) xar doim xam o'tkir yuqumli mononukleoz kasalligini etiologik omili bulib xizmat qilmaydi, Epshteyn-Barr virusini ulushi barcha xolatlarning 90-95% ni tashkil qiladi. Qolgan qismlarda kasallikni uchrashi boshqa bir qator turdagi viruslar ulushiga to'g'ri keladi: inson immuntanqisligi virusi, adenovirus, sitomegalovirus, VI tipdagi herpes viruslar va boshqalar [2]. MKB bo'yicha yuqumli mononukleoz kasalligini qaysi kasallik qo'zg'atuvchilari tomonidan chaqirilishiga qarab quyidagicha ko'rinishda raqamlanadi: Epshteyn-Barr virusli (B27.0); sitomegalovirusli (SMV) (B27.1); boshqa etiologiyali yuqumli mononukleozlar (B27.8); agar yuqumli mononukleozga xos bo'lgan klinik alomatlar kuzatilgan bemorlarda kasallikning etiologik sababi aniqlanmaganda noaniq etiologiyali yuqumli mononukleozlar (B27.9).

Yuqumli mononukleozni etiotrop davosi xozirgi kunga qadar ishlab chiqilmagan. Yuqumli mononukleozni o'tkir davrida davolash tadbirlari Epshteyn-Barr virusini reproduksiyasini pasaytirishga qaratilgan bo'lib, adekvat immun javobni shakllantirilishiga qaratilgan [4, 6].

Ishning maqsadi: Samarqand viloyati xududida yashaydigan bolalarda Epshteyn-Barr virusli etiologiyali yuqumli mononukleozning o'ziga xos klinik kechish xususiyatlarini o'rganishdan iborat.


Tekshirish usullari va materiallari: Samarqand viloyat yuqumli kasalliklar klinik shifoxanasida 2007-2023 yillar davomida davolangan bemorlarda qiyosiy va klinik tekshiruvlar, biomateriallarni umumiy va biokimyoviy taxlili, PZR tekshirish usullarini qo'llash orqali o'tkazildi. Kuzatuv ostiga 1 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan 142 nafar yuqumli mononukleoz tashxisi bilan davolangan bemorlar olindi.

Tekshirish natijalari va muxokamasi: Olingan natijalarni taxlil qilish shuni ko'rsatdiki, yuqumli mononukleoz kasalligi aniq mavsumiylikga ega bo'ldi. Yil davomida ushbu kasallik bilan kasallanish asaosan yilning qish va baxor oylarida tez-tez qayd etilgan (mos ravishda 24% va 46,0%), boshqa fasllarda mavsumiy kasallanish ulushi (30%) (1-rasm).



1-rasm. Yuqumli mononukleoz kasalligini mavsumiyligi


Kasallanishni jinslararo uchrashi o'rganilganida o'g'il bolalar va qiz bolalarni bir-biriga nisbati o'rganilganida o'g'il bolalarni ulushi-51%, qiz bolalarni ulishi-49% ga teng bo'ldi (2-rasm).



2-rasm. Kasallanishni jinslararo taqsimlanishi


Tadqiqotimiz davomida bizga shu narsa ma'lum bo'ldiki, shifoxonaga murojaat qilib kelgan yuqumli mononukleoz bilan xastalangan bemorlarning 28,9% qismida kechikkan xolda murojaat qilib kelganligi ma'lum bo'ldi. Buning sababi yuqumli mononukleoz kasalligining klinik belgilari komorbid kasalliklar klinik belgilari bilan yashiringan xolda kuzatilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Kasallikni klinik kechishi o'rganilganida kasallikni og'irlik darajalari bo'yicha: yengil darajada kechishi-18,2%, o'rta og'ir darajada kechishi-76,7%, og'ir darajada kechishi-5,1% ni tashkil qildi (3-rasm).



3-rasm. Kasallikni og'irlik darajalari bo'yicha taqsimlanishi

Kasallikning klinik kechishidagi asosiy klinik belgilari sifatida quyidagi ko'rsatgichlar ko'p kuzatildi: burun bitishi (96%), tana xaroratini subfebril darajadan febril darajagacha ko'tarilishi (91,4%), jigar va taloqning kattalashishi (91,7%), tonzillit (monotsitar angina) (84,2%) va limfa tugunlarini «zanjirsimon» giperplaziyasi (67,2%), adenoidit (11,5%), ekzantema (18,7%) (4-rasm).



4-rasm. Kasallik klinik belgilarini uchrashi.

Kasallikni tashxisini asoslanishini taxliliy muxokamasi o'rganilganida: umumiy qon, siydik, axlat taxlili va qon bioximik taxlillari o'tkazilgan. Gematologik o'zgarishlardan limfotsitar leykotsitoz va atipik mononuklearlarni topilishi, verifikatsiyani aniqlash uchun PZR tekshiruvi (qonda Epshteyn-Barr virusini DNK ni aniqlash maksadida) o'tkazilishiga asoslangan. Ko'rsatmalarga asosan instrumental tekshiruv usullaridan ko'krak qafasi rentgenografiyasi o'tkazilgan. Barcha bemorlarga UTT o'tkazilgan (ultra tovush tekshiruvi).

Barcha bemorlarga davo muolajalari davolash standartiga asoslangan xolatda o'tkazilgan. Jumladan dezintoksikatsion terapiya, simptomatik terapiya, klinik

ko'rsatmalarga asosan antibiotikoterapiya, immun tizimini rag'batlantirish maqsadida rekombinant interferon induktorlaridan foydalanilgan. Barcha dori vositalarini qo'llanilishida bemorni yoshi, tana vazni va dori vositalarini yo'riqnomasidagi miqdorini belgilanishi e'tiborga olingan xolatda qo'llanilgan.

Xulosa. Bizni o'tkazgan tadqiqotimiz natijalariga asosan: kasallikning mavsumiyliги asosan qish va baxor oylariga to'g'ri kelmoqda. Yuqumli mononukleoz kasalligida hozirgi bosqichda o'zini barcha klinik xususiyatlarini saqlanib qolganligi ma'lum bo'ldi. Klinik belgilarni uchrashi orasida tana xaroratini ko'tarilishi, burun bitishi va gepatosplenomegaliya asosiy o'rinni egallaganligi ma'lum bo'ldi. Kasallikga erta tashxis qo'yilishi sitolitik sindrom va mezenximal yallig'lanish belgilarini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Infektsionniy mononukleoz u detey-Tekst:neposredstvenniy/M.V. Krasnov, I.A. Stekolshikova, M. G. Borovkova, L. V. Andreeva //Sovremennye problemi nauki i obrazovaniya.-2015.-№ 2.- S. 24-26.

2. Infektsionniy mononukleoz u detey, assotsirovanniy s virusami gerpesa 4 i 5 tipov /E. B. Kasimova, O. A. Bashkina, X. M. Galimzyanov, S. J. Netaliev //Infektsionnye bolezni.-2012-T.10,№3-S.44-47.-Tekst : neposredstvenniy.

3. Kramar, L. V. Gerpeticheskaya infektsiya i mononukleozopodobniy sindrom u detey /L. V. Kramar, O.A. Karpuxina.-Volgograd: Izd-vo VolgGMU,2016.-292 s.- Tekst: neposredstvenniy.

4. Kramar, L. V. Kompleksnaya terapiya Epshteyna-Barr-virusnoy infektsii u detey-Tekst: neposredstvenniy/L.V.Kramar, O.A.Karpuxina//Arxiv vnutrenney meditsini. -2012.-№ 1 (3). - S. 25-29.

5. Xoxlova, Z. A. Infektsionnye mononukleoz u detey: osobennosti techeniya zabolevaniya v zavisimosti ot vidov protivovirusnoy terapii-Tekst: neposredstvenniy/Z.A.Xoxlova, O.A.Popova, K.I.Chuykova//Jurnal infektologii. - 2017.-T. 9, № 3.-S. 67-74.

6. Shestakova, I. V. Lechit ili ne lechit Epshteyna-Barr-virusnyuyu infektsiyu: podrobniy obzor razlichnix taktik-Tekst: neposredstvenniy // Infektsionnye bolezni.2013.-№ 4.-S. 12-23.

7. Epstein-Barr virus-associated lymphoproliferative disease in non-immunocompromised hosts: a status report and summary of an international meeting. - Direct text/J. I. Cohen, H. Kimura, S. Nakamura [et al.] //Ann Oncol. -2009.-№ 20 (9). - R. 1472-1482.

8. Samarqand viloyati hududida bolalar va o'smirlarda parotitli infektsiya kechishini klinik-epidemiologik xususiyatlari. N.A.Yarmukhamedova, O.S.Tirkashev, N.S. Yakubova, K.S.Dzhurayeva. Problemy biologii i meditsiny. 2018.-№2. 152-154.

9. Luzuriaga, K. Infectious mononucleosis. - Direct text / K. Luzuriaga, J. L. Sullivan // NEJM. - 2010.-Vol. 362 (21). - P. 1993-2000.

10. Clinical and epidemiological transmission of scarlatina diseases and criteria for diagnosis. Matnazarova G. S. Tirkashev O.S., Mustayeva G.B. Central asian journal of medical and natural sciences May-June 2021 ISSN: 2660 – 4159 (166-169 сtp).

11. Erta yoshli bolalarda gemokolit sindromi bilan kechuvchi o'tkir ichak infeksiyalarini o'ziga xos klinik-laborator kechish xususiyatlari. Tirkashev O.S., Mustayeva G.B., O'ralov J.B. Science and education scientific journal ,volume 5, issue 2 Feb. – 2024 (125-129 сtp)